

INFORMATIKANING ASOSI VA UNING ZAMON TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Farg'ona viloyati oltiariq tumani

2-son kasb-hunar maktabi

Informatika fani o'qituvchi

Abduvoxobov Fazliddin

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda inson hayotiga kompyuter jadal kirib kelmoqda. Kompyuter ish yuritishni osonlashtiradi, yangi hujjatlar va har xil matnlarni tez va sifatli tayyorlash va tahlil qilish, telefon aloqasi orqali axborotlar bilan almashish, murakkab hisob-kitoblarni tez bajarish va ishlab chiqarish jarayonini osonlashtiradi. Ushbu maqolada informatikaning asosi va uning zamon taraqqiyotidagi ahamiyati haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, kompyuterdagi programmalar, ma'lumotlar bazasi, kompyuter va telekommunikatsiya, televideniyada.

THE BASIS OF INFORMATICS AND ITS IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF TIMES

Annotation: At present, a computer is rapidly entering human life. The computer makes it easy to conduct business, quickly and qualitatively prepare and analyze new documents and various texts, exchange information through telephone communication, quickly perform complex calculations and facilitate the production process. This article covers the foundation of Informatics and its importance in the development of times.

Keywords: Information Technology, programs on the computer, database, computer and telecommunications, in television.



Insoniyat turmush tarzining rivojlanishi yangi-yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo'lmoqda. Inson yangilik yaratish jarayonida har xil to'siqlarga duch keladi va shu to'siqlarni yengib o'tish mobaynida yana yangi ixtirolar vujudga kelaveradi. Lekin, hayot tajribalaridan ma'lumki, ko'pincha yangi kashfiyot ma'lum bir muammoni hal qilish jarayonida vujudga keladi. Biz so'zsiz kompyuter XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri desak yanglishmaymiz. Davr talabiga ko'ra, bugunga kelib, kompyuter texnologiyasi juda rivojlanib ketdi. Ma'lum otlarni boshqarish, ayniqsa, hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumotlarni boshqarish tizimlariga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda.

Katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi va axborotlar ustida ishlashga to'g'ri kelinmoqda. Jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar uning bir qismi bo'lgan informatika sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu ta'sir shunchalik kuchliki, axborot texnologiyalarida bo'layotgan o'zgarishlar yillar ichida emas, balki oylar ichida o'zgarib va boyib bormoqda. Axborot texnologiyalarida juda katta yutuq va o'zgarishlar amalga oshdi. Yangi axborot texnologiyalarining yoki kompyuter texnologiyalarining paydo boiishi bu sohadagi xizmat qilish uslubini tubdan o'zgartirdi. Tasavvur qilib ko'ring, yaqin-yaqinlargacha biror masalani kompyuterda yechish uchun algoritmlarni, dasturlash tillaridan birini, dasturni kompyuter xotirasiga kiritishni, lining xatolari natijasini tahlil qilishni talab qilinar edi. Bu ishnilaqt mutaxassislargina amalga oshirar edilar. Ammo bu sohada mutaxassis bo'lmagan foydalanuvchilar sonining kundan kunga ko'payishi jamiyat oldida ma'lum qiyinchiliklarni tug'dirdi.



Windowsni yoki buning asosida qurilgan informatsion texnologivani yanada tushunib olish uchun quyidagilarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz, supermarketda barcha ta'minot masalasini boshqaradigan direktori hal qilsa, servisdagi ham xuddi shunday. Yangi axborot texnologiyasining direktori Windowsdir. Agar sizga matn muharriri kerak bo'lsa, Windows sizni u bilan ta'minlaydi, siz hisob-kitob qilmoqchimisiz, marhamat, Windows sizga elektron jadvalni taklif etadi. Ayniqsa, bu tizimda, Internet, elektron pochta (E-mail) kabi imkoniyatlarning mavjudligi, Windowsning roli beqiyosligidan dalolat beradi. Bu sistemaning tarkibida xizmat qilishning yuzlab turlari mavjudki, ularni o'rganish va foydalanish jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, talabalar uchun juda muhimdir. Kompyuter faqatgina DOS buyruqlarini tushunadi. DOS bilan kompyuter orasidagi interfeys matnli bolib, barcha buyruqlar qoida, klaviaturada kiritiladi.

Axborot texnologiyasi — bu aniq texnik dasturlar vositasining majmui bo'lib, ular yordamida biz ma'lum otlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan hayotdagi turli-tuman masalalarni hal etamiz. Xususan, axborotning eng asosiy turlaridan biri iqtisodiy axborotlardir. U ning oddiy ma'lum otdan farqli tomoni shimdiki, u odamlarning katta jamoalari bilan, tashkilotlar bilan, korxonalar va boshqa iqtisodiy strukturalardagi boshqarish jarayonlari bilan bog'liqligidir. Informatika keng ma'noda fan, texnika va ishlab chiqarish, ya'ni inson faoliyatining barcha sohalarida axborotni kompyuter va telekommunikatsiya yordamida qayta ishlash, saqlash, uzatish bilan bog'liq yagona sohadir.



Informatika fan nomi lotin tilidan olingan bo‘lib axborotlarni tushuntirish va tahlil qilish ma‘nosini bildiradi, bu fan axborotlarni jamlash va qayta ishlash usullarini, axborotlash jarayonining qonuniyatlarini o‘rganadi. Informatika atamasi XX asrning 60-yillarida paydo b‘lib ishlatila boshlandi. Informatikaning yuzaga kelishi va rivojlanishida hisoblash texnikasi va boshqa texnik vositalarning o‘rni beqiyos, chunki axborotlar bevosita hisoblash texnikasi ko‘magida qayta ishlanadi va bu fan o‘zining xususiy, yangi, nostandart uslub va usullariga egadir. Demak, informatika bu inson faoliyatining turli jabhalaridagi axborotlarni izlash, to‘plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi fandır.

Axborotlarni to‘plashning qayta ishlash va uzatish vositalariga bo‘lgan ehtiyoji juda katta. Uzatish vositalari — sputnik, televizor, radio, magnitafon, video, telefon va h.k. To‘plash va tashuvchi vositalar deb kitob, gazeta, kasseta va dikslarni tushunishimiz mumkin. Axborotlar ustidan bar xil amallarni (jam lash, saqlash, uzatish va h.k.) bajarish jarayoni va shu jarayonlarni amalga oshiruvchi barcha texnik vositalarni ishlatishni o‘rgatuvchi fan — axborot texnologiyasi deb nomlanadi. Axborot texnologiyasining asosiy texnik vositasi bu kompyuterdir.

Kompyuter nim a? U nima qila oladi?

- Kompyuter hisoblay oladi (sekundiga bir necha milliard amallar hisobini bajara oladi).
- Ma‘lumotlarni saqlay oladi (xotirasiga millionlab varaqda bo‘lgan kitoblarni saqlanishi mum kin).

- Chiza oladi (uning im koniyatida 32 ming rangli bo‘yoqlar va mo‘yqalam lar bor).
- Musiqa va video bilan ishlay oladi (xotirasida minglab musiqa va yuzlab video tasmlar saqlanishi mumkin).
- Ma’lumotlarni yarata oladi (matn, jadvallar, rasmlar, tovushlar, video parchalar, va h.k.).
- Ma’lumotlar bilan almashadi (Internet xizmatidan foydalanib xatimizni birzumda dunyoning bir burchagidan boshqa burchakda joylashgan kompyuterga yetkazib beradi).
- Ma’lumotlar bilan ishlay oladi (kerakli ma’lumotni, millionlab ma’lumotlar ichidan izlab tez va aniq topa oladi).

Kompyuter nima uchun kerak? Kompyuter hayotimizning turli sohalarida qo‘llaniladi. Masalan, korxona va tashkilotlar ofislarida — ma’lumotlarni to‘plash va ular ustidan har xil amallarni (hisoblash, bosmaga chiqarish, qayta ishlash, tahlil qilish va h.k.) bajarish; o‘qishda — har xil fanlar bo‘yicha barcha ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun; meditsinada — murakkab operatsiyalar va bemorlar ustidan kuzatuvlarni bajarish uchun; do‘konlarda — hisob-kitob va ma’lumotlar bilan ishlash amallarini bajarish uchun; ilmiy tekshirish institutlarida — murakkab ilmiy izlanishlarni bajarish uchun; televideniya — kino, klip, reklama va boshqa tasvirlarni yaratish va ularni bezash; kosmos, aviatsiya, dengizchilikda — raketa, samolyot, kemani boshqarish uchun; xonadonlarda — dam olish va o‘rgatuvchi o‘yinlar bilan ishlash, internet imkoniyatlaridan foydalanish uchun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi mustahkamlar sari izchil harakat qilishim iz lozim». «Xalq so‘zi», 2006-y., 11-fevral.
2. M. Aripov, J. Muxommediev. Informatika, informatsion texnologiyalar. (Xalqshunoslik mustahkamlisliklari uchun darslik) — T., 2004-y
3. M. Aripov va boshqalar «Informatika, informatsion texnologiyalar» (Bakalavr uchun o‘quv ko‘llanma) — T., TD TU. 1-2 qism. 2003-y 320-430 b.

4. Арипов М. и др. «Основы Интернет» — Т., Университет 2002 й. 194 б.
5. М. Aripov. Internet va elektron pochta asoslari. — Т., O‘zMU 2000-y. 126 б.
6. Арипов М. Англо-русско-узбекский словарь сокращенных слов по информатике. — Т.; Университет 2001 г. 145 с.
7. М. Aripov, А. Tillaev. Web sahifalar yaratish texnologiyalari. — Т., 2006-y. 170 б.